SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

MITANOVA SHAHLO NE'MATULLAYEVNA

OLAMNI LISONIY ANGLASHDA DENDRONIMLARNING O'RNI (NEMIS VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA)

10.00.13 – Qiyosiy va chog'ishtirma tilshunoslik

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Samarqand – 2026

UO‘K: 811.112.2:811.512.133+81-144

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on philological sciences**

Mitanova Shahlo Ne’matullayevna
Olamni lissoniy anglashda dendronimlarning o‘rni
(nemis va o‘zbek tillari misolida) 3

Митанова Шахло Неъматуллаевна
Роль дендронимов в осмыслении языковой картины мира
(на материале немецкого и узбекского языков) 27

Mitanova Shakhlo Ne’matullayevna
The Role of Dendronyms in the Linguistic Conceptualization of the World
(A Comparative Study of German and Uzbek) 53

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works 58

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

MITANOVA SHAHLO NE'MATULLAYEVNA

OLAMNI LISONIY ANGLASHDA DENDRONIMLARNING O'RNI (NEMIS VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA)

10.00.13 – Qiyosiy va chog'ishtirma tilshunoslik

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Samarqand – 2026

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3.PhD/Fil6582 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida www.samdchti.uz hamda "Ziyonet" Axborot-ta`lim portalida www.ziyonet.uz manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Anorqulov Sanjar Iskandarovich** filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Begmatov Muxtor Begmatovich** filologiya filologiya fanlari nomzodi, professor
	Ro‘ziyev Yarash Bozorovich filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Yetakchi tashkilot:	**Qarshi davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 raqamli Ilmiy kengashning "6" noyabr 2026-yil soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 140117, O‘zbekiston, Samarqand sh., Gagarin ko‘chasi, 43-uy. Tel: (99866) 238-29-37; faks: (99878) 210-00-18; e–mail: info@samdchti.uz).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (86008 raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 140117, O‘zbekiston, Samarqand sh., Gagarin ko‘chasi, 43-uy. Tel: (99866) 238-29-37.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "15" oktabr kuni tarqatildi.
(2026-yil "15" oktabr dagi № 55 raqamli reestr bayonnomasi).

B.A. Xolikov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O‘.O‘. Qo‘ldoshov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

D.A. Kiselyov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida inson tomonidan obyektiv voqelikni bilish va olam manzarasini shakllantirish o‘simliklar dunyosining rivojlanishini o‘z ichiga oladi. O‘simlik leksikasi olam lisoniy manzarasi elementlaridan biri sifatida tilning boyligini ochib berishga, atrofdagi dunyo haqiqatlari haqidagi insoniy g‘oyalarning ko‘p qirraliligini va inson ichki dunyosining madaniy rivojlanish darajasini aks ettirishga imkon beradi. Dunyoda bugungi kunda zamonaviy tilshunoslikning tilda inson omilini ochib berish, olamning lisoniy manzarasini o‘rganishga qaratilgan umumiy tendensiya kuzatilmoqda. Olam lisoniy manzarasini kuzatishning qimmatli natijalari tillarni taqqoslashda, chog‘ishtirishda yuzaga chiqadi, bu o‘z mohiyatiga ko‘ra ikki yoki undan ortiq lisoniy manzaralarni taqqoslashni anglatadi. Tilni boshqa til bilan tizimli taqqoslash orqali o‘rganish va tavsiflash kontrastiv lingvistikaga asoslanadi. Mazkur ish nemis va o‘zbek tillarida dendronim nominatsiyasini qiyosiy o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqot asosan sinxron shaklda amalga oshirilgan bo‘lib, tarixiy-etimologik ma’lumotnomalar ham taqdim etib boriladi. Dendronimlar – daraxt va butalarning nomlari, botanika nomenklaturasining elementlari bo‘lib, ikki fan: tilshunoslik va botanika kesishgan sohaga kiradi, ammo boshqa fanlar: madaniyatshunoslik, tarix, etnografiya va folklorshunoslik mutaxassislari uchun ham qiziqish uyg‘otadi, chunki fitonimlar odamlarning kognitiv va madaniy rivojlanish darajasi haqida ma’lumot beradi.

O‘zbekiston tilshunosligida ham til birliklarining lingvokulturologik xususiyatlarini o‘rganish masalasi qator tilshunoslarning allaqachon tadqiqot obyektiga aylangan. Qiyosiy, chog‘ishtirma tadqiqotlar alohida mazmunga ega va bu maqollarning universal, differensial va milliy-madaniy belgilarini yuzaga chiqarishni taqozo etadi. Bundan tashqari o‘z navbatida xorijiy tillarni o‘rganuvchilarning sotsiomadaniy kompetensiyalarini rivojlantirishga imkon beradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “O‘z tilini hurmat qilgan ma’rifatli el boshqalarning ona tiliga ham chuqur hurmat bilan qaraydi”[1].

Ushbu dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, shuningdek, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori

[1]Prezident Shavkat Mirziyoyevning o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o‘ttiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali tadbirdagi nutqidan. https://uza.uz/oz/posts/prezident-shavkat-mirziyoyevning-o-zbek-tiliga-davlat-tili-m-21-10-2019.

hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi 610-son “Ta’lim muassasalarida chet tillarni o‘qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 19-maydagi 312-son “Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli bo‘lgan boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganik darajasi. Tilshunoslikda leksikaning tematik qatlamlarini, xususan, o‘simlik nomlari, jumladan, dendronimlar (daraxt nomlari)ni o‘rganish qadimdan olimlar e’tiborini tortib kelmoqda. Dendronimlar, asosan, onomastika, etnolingvistika, kognitiv lingvistika va leksikologiya doirasida tadqiq etilgan.

Jahon tilshunosligida fitonimlar va dendronimlarni o‘rganish bo‘yicha V.A.Nikonov, A.V.Superanskaya, E.M.Murzaev, N.I.Tolstoy, O.N.Trubachyov, B.A.Serebrennikov, A.A.Reformatskiy, Yu.A.Karpenko, R.Kozlova, G.Paul, V.Vund, E.Sapir, B.Uorf[2]larning ishlari muhim ilmiy ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqotlarda o‘simlik nomlarining kelib chiqishi, nominatsiya motivatsiyasi, semantik tuzilishi hamda madaniy-belgilik xususiyatlari yoritilgan.

Nemis tilshunosligida dendronimlar va fitonimlar masalasi V.Flaysher, G.Helbig, H.Paul, J.Trier, L.Vaysgerber[3] kabi olimlarning leksik-semantik va tarixiy-tilshunoslikka oid tadqiqotlarida qisman tahlil qilingan.

O‘zbek tilshunosligida dendronimlar va fitonimlar masalasi E.Begmatov, A.Madvaliyev, N.Mahmudov, Sh.Rahmatullayev, B.Yo‘ldoshev, M.Mirtojiyev,

[2] Никонов В. А. Башкирские имена. – Москва: Наука, 1986. – 383 с.; Суперанская А.В. Общая топонимика. – Москва: Наука, 1973. – 367 с., Мурзаев Е. М. Топонимика. – Москва: Наука, 1974. – 382 с.; Толстой Н.И. Славянская географическая терминология. Семасиологические этюды. – Москва: Наука, 1969. – 258 с.; Трубачёв О.Н. Названия рек правобережной Украины. Словообразование, этимология, этническая интерпретация. – Москва, 1968. – 290 с.; Серебренников Б.А. Роль человеческого фактора в языке: Язык и мышление. – Москва: Наука, 1988. – 242 с.; Реформатский А. А. Топономастика как лингвистический факт. – Москва: Наука, 1964. – 160 с.; 92. Карпенко Ю. А. Топонимы и географические термины (вопросы взаимосвязи) // Вопросы географии. – Москва, 1970. –№ 81. – С. 42.; Козлов В.И. Жизнеобеспечение этноса: содержание понятия и его экологические аспекты //Этническая экология: теория и практика. –Москва, 1991. – С. 14-43; Пауль Г. Принципы истории языка. –Москва: Изд-во ин. лит., 1960. – 500 с.; Сепир Э. Избранные труды по языкознанию и культурологии. – Москва: Прогресс, 2002. – 656 с.; Уорф Б. Л. Наука и языкознание. – Москва: Прогресс, 1999. – 308 с.

[3] Fleischer W. Phraseologie der deutschen Gegenwartssprache.– Tübingen: Max Niemeyer Verlag, 1997. – 299 S.; Helbig, Buscha. Deutsche Grammatik – Leipzig/Berlin/Wien/Zurich/ New York: Langenscheidt Verlag Enzyklopädie, 1996. – 731 S.; Paul H. Deutsche Grammatik. Band I, Teil I: Geschichtliche Einleitung. – Halle: MAX Niemeyer Verlag, 1956. –313 S.; Paul H. Deutsche Grammatik. Band II, Teil III: Flexionlehre. Halle: MAX Niemeyer Verlag, 1956. – 406 S.; Weisgerber J.L. Muttersprache und Geistesbildung. – Göttingen, 1929. – 170 S.

H.Ne’matov, R.Qo‘ng‘urov, A.Hojiyev[4] kabi olimlarning ishlari doirasida leksikologik va semantik jihatdan o‘rganilgan.

Bevosita o‘zbek tili fitonimlari va dendronimlariga bag‘ishlangan maxsus tadqiqotlar sifatida Z.Xolmonova, M.Jo‘rayeva, D.Xudoyberganova, Sh.Mustafayeva[5]larning ilmiy tadqiqot ishlarini qayd etish mumkin. Bu tadqiqotlarda o‘simlik va daraxt nomlarining tematik guruhlari, semantik-motivatsion xususiyatlari hamda xalqona tasnifi yoritilgan.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, yuqorida qayd etilgan tadqiqotlarda dendronimlar ko‘proq bir tilli, tarixiy-etimologik yoki umumleksik nuqtayi nazardan o‘rganilgan bo‘lib, ularning qiyosiy-tipologik, lingvokognitiv va lingvomadaniy jihatlari, xususan, nemis va o‘zbek tillari materiallari asosida tizimli tahlili hozirga qadar maxsus monografik tadqiqot obyekti bo‘lmagan.

Dissertatsiya mavzusining bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi mavzusi Samarqand davlat chet tillar institutining “Xorijiy tillarni o‘qitishda raqamli ta’lim va sun’iy intellekt texnologiyalarining lingvodidaktik imkoniyatlari” masalasiga bag‘ishlangan istiqbolli ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi nemis va o‘zbek tillarida dendronimlarning qiyosiy tavsifi, yog‘ochsimon o‘simliklarning nomlanish jarayonini o‘rganish, yangi leksik birliklarning hosil bo‘lishida dendronimlarning rolini aniqlash va olamni lisoniy manzarasi (OLM) elementi sifatida dendronimlarning lingvokulturologik tomonlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

nemis va o‘zbek tillarida yog‘ochli o‘simliklar nomlari (dendronimlar)ning lingvistik tabiati, struktur-semantik xususiyatlari hamda ularning kognitiv-nominativ paradigma doirasidagi o‘rnini nazariy va qiyosiy-tipologik jihatdan asoslash;

nemis va o‘zbek tillari materiallari asosida dendronimlarning derivatsion modellari, nominativ-struktur xususiyatlari hamda konseptualizatsiya va kategoriyalash jarayonlari bilan bog‘liq nominativ-kognitiv mexanizmlarini aniqlash;

dendronimlarning til tizimidagi derivatsion, semantik va pragmatik salohiyatini qiyosiy tahlil qilish hamda dendrokomponentli nomlarning atrof-muhit, ijtimoiy tafakkur va nomlash jarayonidagi funksional imkoniyatlarini ochib berish;

dendronimlarni lingvokognitiv va lingvomadaniy birlik sifatida talqin etib, nemis va o‘zbek tillarida ularning konseptual-semantik tuzilishi, milliy-madaniy

[4] Бегматов Э. А. Ўзбек тили антропонимикаси. – Тошкент: Фан, 2013. – 264 б.; Madvaliyev A. va boshqalar. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2023. – 843 b.; Махмудов Н.М. Золотая сокровищница нашего языка. – Ташкент: Издательско-полирафический дом творчества имени Гафура Гуляма, 2012. – 124 с.; Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – 408 б.; Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Фан, 2010. – 288 б.; Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 128 б.; Қўнғуров Р. Ўзбек тили стилистикасидан очерклар. – Самарқанд, 1975. – 82 б.

[5] Xolmonova Z. “Boburnoma” leksikasi tadqiqi. Filol. fan. d-ri... diss. – Toshkent, 2009. –242 b.; Xudoyberganova D. Matnning antropotsentrik tadqiqi. Monografiya. – Toshkent: Fan, 2013. – 136 b.; Muqimova G.R. Fitomorf metaforalarning lingvopoetik, lingvokulturologik xususiyatlari va leksikografik talqini. Filol. fan. bo‘yicha falasafa dok. diss… avtoref. – Buxoro, 2023. – 52 b.

xususiyatlari hamda etnomadaniy komponentlarini qiyosiy-tipologik jihatdan tavsiflash.

Tadqiqotning obyekti sifatida nemis va o‘zbek tillaridagi dendronimlarni ifodalovchi leksik birliklar tanlangan.

Tadqiqotning predmetini esa daraxt nomlarini ifodalovchi leksik birliklarning qiyosiy, semantik va lingvokulturologik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Ushbu ishni ochib berishda kompleks tahlil, kontekstual tahlil, konseptual tahlil, yaxlit tanlab olish, izohlash, tavsiflash va qiyoslash kabi usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

nemis va o‘zbek tillari materiallari asosida yog‘ochli o‘simliklarning (dendronimlar) nomlanishi kognitiv-nominativ paradigma doirasida qiyosiy-tipologik jihatdan ochib berilib, ularning struktur-semantik va derivatsion modellari konseptualizatsiya, kategoriyalash, prototipik va nominativ-semantik yondashuvlar asosida asoslangan;

nemis va o‘zbek tillari materiallari asosidagi qiyoslash natijasida olamning dendrokomponentlar vositasida lisoniy konseptuallashtirilishini ifodalovchi nominativ-kognitiv model ishlab chiqilib, mazkur modelning shakllanishi bilish jarayonining bosqichma-bosqichligi, konseptualizatsiya, kategoriyalash va nominatsiya mexanizmlarining o‘zaro uzviyligi asosida dalillangan;

dendronimlarning til tizimidagi o‘rni, derivatsion va semantik salohiyati qiyosiy-tipologik jihatdan aniqlanib, dendrokomponentli nomlarning atrof-muhit va ijtimoiy-madaniy voqelikni konseptuallashtirish, kategoriyalash va nomlashdagi nominativ-struktur hamda pragmatik imkoniyatlari ochib berilgan;

dendronimlar lingvokognitiv va lingvomadaniy birliklar sifatida talqin qilinib, qardosh bo‘lmagan tillarda ularning konseptual-semantik tuzilishi, milliy-madaniy belgili komponentlari hamda etnomadaniy tahlillar bilan aloqadorligi nemis va o‘zbek tillari orqali qiyosiy-tipologik jihatdan ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

dissertatsiyada ishlab chiqilgan dendronimlarning konseptual modeli va tasnifi asosida maxsus seminar mashg‘ulotlari, amaliy dars ishlanmalari hamda o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar tayyorlash mumkin;

tadqiqot natijalari nemis va o‘zbek tillari bo‘yicha izohli, qiyosiy va terminologik lug‘atlar tuzishda, ayniqsa, yog‘ochli o‘simliklar nomlarini tizimlashtirish va ularning semantik, etimologik hamda lingvomadaniy izohlarini mukammallashtirishda foydalanilishi mumkin;

dendrokomponentli leksik birliklar va frazeologizmlar haqidagi materiallar badiiy matnlarni tahlil qilish, tarjima jarayonida milliy-madaniy komponentlarni to‘g‘ri talqin qilish va adekvat tarjima yechimlarini topishda amaliy ahamiyat kasb etadi;

tadqiqotda olingan natijalar madaniyatlararo kommunikatsiya sohasida, xususan, nemis va o‘zbek xalqlarining tabiatga, daraxt va o‘simliklarga munosabatini aks ettiruvchi lingvomadaniy stereotiplarni tushuntirishda foydalanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo‘yilgani, nazariy ma’lumotlarning ilmiy manbalarga tayanganligi, tilshunoslikdagi eng so‘nggi ilmiy yutuqlardan foydalanilganligi, tahlil qilingan ko‘p sonli dendronimlar, tilshunoslikda ishlatiluvchi (kompleks tahlil, kontekstual tahlil, konseptual tahlil, yaxlit tanlab olish, izohlash, tavsiflash va qiyoslash va boshqa) yondashuv va metodlarning qo‘llanishi, nomlanish masalasiga doir tilshunoslikda amalga oshirilgan qator tadqiqotlarning nazariy qoidalaridan foydalanilganligi, zamonaviy tilshunoslikning dastlabki asosiy ilmiy-nazariy qonuniyatlari (antropotsentrizm tamoyili, fanlararo tamoyil), tadqiqot natijalarining ishning nazariy qonuniyatlariga muvofiqligi, nazariy qarashlar va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiyaning nazariy ahamiyati shundaki, u turli til oilalari: nemis va o‘zbek tillari namoyondalarining “Yog‘ochli o‘simliklar” tematik guruhini qiyosiy-tipologik tavsiflashning birinchi tajribasidir.

Ishning amaliy ahamiyati shundan iboratki, tadqiqot natijalaridan qiyosiy tilshunoslik, folklorshunoslik, madaniyatshunoslik fanlaridan ma’ruzalarda, shuningdek, tarjima bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarda foydalanish mumkin.

Tadqiqot davomida aniqlangan dendronimlarning nominativ, struktur-semantik va lingvokognitiv xususiyatlariga doir ilmiy xulosalar oliy ta’lim muassasalarida “Leksikologiya”, “Qiyosiy tilshunoslik”, “Kognitiv lingvistika” va “Lingvokulturologiya” fanlarini o‘qitishda qo‘shimcha nazariy va amaliy material sifatida foydalanish imkonini beradi:

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Dissertatsiyada ishlab chiqilgan nazariy va amaliy xulosa, tavsiya va ishlanmalar asosida:

nemis va o‘zbek tillari materiallari asosida yog‘ochli o‘simliklarning (dendronimlar) nomlanishi kognitiv-nominativ paradigma doirasida qiyosiy-tipologik jihatdan ochib berilib, ularning struktur-semantik va derivatsion modellari konseptualizatsiya, kategoriyalash, prototipik va nominativ-semantik yondashuvlar asosida asoslanganligiga oid xulosalardan Samarqand viloyati teleradiokompanyasining 2026-yil 4-fevral kunidagi “Samarqand sadosi” eshitirishining navbatdagi son ssenariysini tayyorlashda asosiy manba sifatida foydalanilgan (Samarqand viloyati teleradiokanalining 2026-yil 4-fevraldagi 01/07-38-son ma’lumotnomasi). Natijada dendronimlar lingvokognitiv va lingvomadaniy birliklar sifatida talqin qilinib, ularning konseptual-semantik tuzilishi, milliy-madaniy belgili komponentlari hamda etnomadaniy kodlar bilan aloqadorligi nemis va o‘zbek tillari misolida qiyosiy-tipologik jihatdan tizimli tavsiflangan;

nemis va o‘zbek tillari materiallari asosidagi qiyoslash natijasida olamning dendrokomponentlar vositasida lisoniy konseptuallashtirilishini ifodalovchi nominativ-kognitiv model ishlab chiqilib, mazkur modelning shakllanishi bilish jarayonining bosqichma-bosqichligi, konseptualizatsiya, kategoriyalash va nominatsiya mexanizmlarining o‘zaro uzviyligi asosida dalillanganligiga oid natijalaridan Samarqand davlat chet tillar institutida amalga oshirilgan Yevropa Ittifoqining Erasmus+ dasturining 561624 ERR-1-2015-UK-EPPKA2 CBHE-SP-

ERASMUS + CBHE IMEP: “O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimi jarayonlarini modernizatsiyalash va xalqarolashtirish” nomli innovatsion tadqiqotlar loyihasi doirasida foydalanildi (Samarqand davlat chet tillar institutining 2026-yil 26-yanvardagi 346/02-son ma’lumotnomasi). Natijada “atrof-muhit – yog‘ochli o‘simlik – atrof-muhit” tipidagi nominativ kognitiv model ilmiy muomalaga kiritilib, mazkur sxemaning bilish jarayoni bilan bosqichma-bosqichligi, konseptualizatsiya va kategoriyalash mexanizmlari bilan uzviy bog‘liqligi nemis va o‘zbek tillari materiallari asosida dalillangan;

dendronimlarning til tizimidagi o‘rni, derivatsion va semantik salohiyati qiyosiy-tipologik jihatdan aniqlanib, dendrokomponentli nomlarning atrof-muhit va ijtimoiy-madaniy voqelikni konseptuallashtirish, kategoriyalash va nomlashdagi nominativ-struktur hamda pragmatik imkoniyatlari ochib berilgan xulosalaridan (O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining Yevropa Ittifoqining ERASMUS+ dasturi doirasida Ruminiyaning Alba Yuliya universiteti bilan hamkorlikda bajarilayotgan “ICM-2022-KA171-000077648”-sonli xalqaro loyiha doirasida) thinking cycle (Ta‘limda universal dizayn fikrlash tsikli shaklidagi tasavvurga asoslangan kontent mazmuni individual ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ishlab chiqilgan dastur mazmunini takomillashtirishda foydalanilagan. O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2026-yil 12-martdagi 04-06-1/1433-son ma’lumotnomasi). Natijada nemis va o‘zbek tillari materiallari asosida yog‘ochli o‘simliklar (dendronimlar) nominatsiyasi kognitiv-nominativ paradigma doirasida qiyosiy-tipologik jihatdan tizimli tadqiq etilib, ularning struktur-semantik va derivatsion modellari konseptual yondashuv asosida ilmiy asoslab berilgan;

dendronimlar lingvokognitiv va lingvomadaniy birliklar sifatida talqin qilinib, qardosh bo‘lmagan tillarda ularning konseptual-semantik tuzilishi, milliy-madaniy belgili komponentlari hamda etnomadaniy tahlillar bilan aloqadorligi nemis va o‘zbek tillari orqali qiyosiy-tipologik jihatdan ochib berilgan xulosalaridan davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2020-2023-yillarda bajarilgan AM-F3-201908172-raqamli “O‘zbek tilining ta’limiy korpusini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2026-yil 12-martdagi №04/1-1356-son ma’lumotnomasi). Natijada dendronimlar lingvokognitiv va lingvomadaniy birliklar sifatida talqin qilinib, qardosh bo‘lmagan tillarda ularning konseptual-semantik tuzilishi, milliy-madaniy belgili komponentlari hamda etnomadaniy kodlar bilan aloqadorligi nemis va o‘zbek tillari misolida qiyosiy-tipologik jihatdan tizimli tavsiflangan.

Tadqiqot natijalaring aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 12 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 8 ta, jumladan, respublika jurnallarida 5 ta, xorijiy jurnallarda 3 ta maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 136 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar va ishning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Dendronimlarning lingvokulturologik va semasiologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida daraxt nomlarining qanday ma’nolarni ifodalashi va qanday madaniy tushunchalarni aks ettirishi tahlil qilingan, ya’ni, daraxt nomlari faqat so‘z sifatida emas, balki madaniy ma’no tashuvchi birlik sifatida ham o‘rganilgan.

Insonning atrofdagi dunyo bilan tanishishi, rivojlanishi va o‘rganishi, ehtimol, insonning o‘zi yerda paydo bo‘lishi bilan boshlangan. Nutq va til qobiliyatlarisiz inson atrofdagi dunyoning xilma-xilligi, ulug‘vorligi va ko‘p qirraliligini o‘rgandi. Atrof-muhit obyektlari va voqeliklari, shuningdek, ular o‘rtasidagi munosabatlar inson ongida dunyo haqidagi o‘ziga xos tushunchani shakllantirdi, olam modelini, mantiqiy strukturasini, manzarasini vujudga keltirdi. Kishilik jamiyati vujudga kelishi va rivojlanishi hamda til va nutqning paydo bo‘lishi bilan atrofdagi olam haqiqatlarini (realiyalarini) nomlash zarurati paydo bo‘ldi. Avvalo, tabiat hodisalariga, quruqlik, o‘rmonlar, tog‘lar, o‘simliklar va hayvonlarga nom berilgan. Shunday qilib, dunyo haqidagi g‘oyalar nafaqat vizual ruhiy tasvirlar shaklida paydo bo‘ladi, balki o‘zining lingvistik belgisini oladi, shaxs dunyosi va u mansub bo‘lgan til hamjamiyatining lisoniy olam manzarasini shakllantiradi. Qadimgi Yunoniston davridan beri olimlar til va unda aks ettirilgan narsalarning tabiati o‘rtasidagi bog‘liqlik masalasini ko‘tardilar. Keyinchalik buyuk nemis tilshunosi V.Humboldtning qarashlari lingvistik nisbiylik nazariyasi uchun asos bo‘lib xizmat qildi. Humboldt tilni “odamlar va ularning atrofidagi obyektiv dunyo o‘rtasida joylashgan oraliq dunyo” va “turli tillar bir xil narsaning turli xil belgilari emas, balki unga nisbatan turlicha qarashdir”[6] deb ta’kidlagan.

Zamonaviy mualliflar “olam manzarasini insonning dunyoqarashi asosini tashkil etuvchi, ya’ni insonning ma’naviy va kognitiv faoliyati natijasida uning tushunchasida dunyoning muhim xususiyatlarini ifodalovchi olamning global obrazi sifatida belgilaydilar”[7]. Tadqiqotchi Y.D.Apresyan esa olamning lisoniy manzarasini “ma’lum bir til hamjamiyatining kundalik ongida tarixan shakllangan va tilda aks ettirilgan dunyo haqidagi g‘oyalar majmuyi, voqelikni konsepsiyalashning ma’lum bir usuli” deb ta’riflaydi. Olamning lisoniy manzarasi tushunchasi ikkita o‘zaro bog‘liq, lekin bir-biridan farq qiluvchi g‘oyalarni o‘z

[6] Humboldt W. Über die Verschiedenheit des menschlichen Sprachbaues. – Berlin: Dümmler, 1836. – S. 375.
[7] Постовалова В.Н. Картина мира в жизнедеятельности человека. – Москва: Наука, 1988. – С. 21.

ichiga oladi: 1) til yordamida taqdim etilgan olam manzarasi “ilmiy” manzarasidan farq qiladi (shu ma’noda “olamning sodda manzarasi” termini ham qo‘llanadi) va 2) har bir til borliqni boshqa tillarga qaraganda bir oz boshqacha tasvirlovchi o‘z manzarasini “chizadi”. Olam lisoniy manzarasining rekonstruksiyasi zamonaviy lingvistik semantikaning eng muhim vazifalaridan biridir”[8].

Olam lisoniy manzarasini kuzatishning nihoyatda qimmatli natijalari tillarni taqqoslash, chog‘ishtirishda ochiladi, bu esa mohiyatan ikki yoki undan ortiq til dunyosini solishtirishni anglatadi. Tilni tizimli ravishda boshqa til bilan taqqoslash orqali o‘rganish va tavsiflash kontrastiv tilshunoslikning (konfrotativ lingvistika, qiyosiy tipologiya) asosi bo‘lib, uning maqsadi o‘zaro genetik munosabatlari xarakteridan qat’iy nazar ikki, kamdan-kam hollarda bir nechta tillarni chog‘ishtirma o‘rganish, til tuzilishining barcha darajalarida ularning o‘xshashliklari va farqlarini aniqlashdir.

Chog‘ishtirma metod g‘oyasi tilshunos olim I.A.Boduen de Kurtene tomonidan nazariy jihatdan asoslangan. Chog‘ishtirish elementlari XVIII-XIX asr grammatikalarida ham uchragan, lekin u muayyan tamoyillarga ega bo‘lgan lingvistik usul sifatida XX asrning 30–40-yillarida shakllana boshlagan. XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi rus tilshunoslarining asarlarida nafaqat tillarni qiyosiy o‘rganish bo‘yicha boy materiallar, balki kontrast tilshunoslik usullarini qo‘llash imkoniyatlari to‘g‘risidagi qoidalar A.A.Potebnya, F.Y.Korsh, keyinchalik Y.D.Polivanov, V.A.Bogoroditskiy, L.V.Shcherbaning asarlarida o‘z ifodasini topgan bo‘lib, ularda ona tili va chet tillarini taqqoslashning nazariy asoslari keltirib o‘tilgan. I.I.Meshaninov, V.D.Arakin, A.I.Smirnitskiy, V.N.Yarseva, B.A.Uspenskiy, Y.V.Rojdestvenskiy, S.D.Katsnelson, B.A.Serebrennikov, V.G.Gak kabi mualliflarning qiyosiy tipologiyaning turli jihatlariga bag‘ishlangan ko‘plab tadqiqotlari mavjud.

Tadqiqotning asosiy predmetini nemis va o‘zbek tillarining o‘simlik leksikasi birliklari, ya’ni daraxt va butalarning nomlari tashkil etadi. Tadqiqot predmeti tasodifan tanlanmagan. Yuqorida aytib o‘tilganidek, olam manzarasi hamda olam lisoniy manzarasi haqidagi tasavvurlar insonning yashash muhitidan, tabiatdan – uning yashash joyiga yaqin joylashgan tog‘lar, o‘simliklar va suv havzalaridan boshlanadi. Tabiat har doim ham unga qulay bo‘lavermagan, omon qolish uchun inson o‘zini yomon ob-havodan, yirtqich hayvonlardan va sovuqdan himoya qilishi kerak edi. Ba’zida tabiatning o‘zi ham yordam bergan. Daraxtlar va butalar odamlarning omon qolishida muhim rol o‘ynagan. Ulardan uylar qurish, asboblar, qurollar yasashda foydalanilgan; ularning rezavorlari va mevalari yemish sifatida xizmat qilgan. Odamlar uchun eng hayratlanarli va foydali bo‘lgan o‘simlik dunyosi namunalariga birinchi navbatda nom berilgan bo‘lib, ularning qadimiy nomlarga ega ekanligi mantiqan to‘g‘ridir. Shuning uchun, dendronimlar – lug‘atning qadimgi qatlamini, ma’lum darajada atrofdagi dunyoning rivojlanish ketma-ketligini aks ettiradi va shu nuqtayi nazardan tilshunoslikning o‘rganish predmeti sifatida qiziqish uyg‘otadi.

[8] Апресян Ю.Д. Языковая картина мира. – www.krugosvet.nl/articles/77/1007724/print.htm/21-11-2025.

Dendronimlar (yunon. *dendron* – daraxt, *onyma* – nom, ism) deganda daraxtga o‘xshash o‘simliklar, ya’ni daraxtlar va butalar nomlarini tushunamiz.

Ushbu tematik guruhni o‘rganish oddiy vazifa bo‘lib tuyulsa ham, uni tashkil etish tamoyillarini aniqlashda qiyinchiliklar paydo bo‘ladi. Shubhasiz, bu “yog‘ochli o‘simlik” umumiy mavzusi ostida birlashgan otlar to‘plamidir.

Lingvistik adabiyotlarda paradigmalarda birlashgan leksik birliklarni tashkil qilish tamoyillarini tavsiflashda semantik maydon, sinonimik qator, mavzu guruhlari, antonimik qarama-qarshiliklar, giper-giponimlik munosabatlardagi leksema guruhlari kabi terminlar uchraydi.

Dendronimlarning semantik tasnifi tilshunoslikning leksikologiya, onomastika, kognitiv lingvistika va etnolingvistika kesishgan nuqtasida joylashgan muhim masala hisoblanadi. Dendronimlar – daraxt va butalar nomlarini ifodalovchi leksik birliklar – tilning nafaqat ekologik-biologik, balki madaniy-tarixiy qatlamini ham aks ettiradi; ularning semantik maydoni esa juda ko‘p qatlamli, ko‘p funksiyali va tipologik jihatdan murakkabdir. Dendronimlarning semantik tasnifini ishlab chiqish uchun avvalo uning nazariy-metodologik asoslarini aniqlash lozim: nimani “dendronim” deb hisoblash, semantik kategoriyalarni qanday mezonlar bo‘yicha ajratish, tasnifning funksional maqsadi va amaliy qiymati qanday bo‘lishi kerak – bular tasnifni loyihalashning boshlang‘ich nuqtalaridir.

Tasnif amaliy jihatdan quyidagi tadqiqot vazifalarini hal qilishga yordam beradi: toponimik atlaslar tuzish, etnolingvistik lug‘atlar yaratish, milliy leksik fondni saqlash va qayta tiklash, o‘rmon xo‘jaligi va ekologiya sohalarida kommunikatsiyalarni aniq qilish, shuningdek, adabiy-ilmiy tarjima ishlarida semantik ekvivalentni topishda qo‘llash. Misol uchun, dendronimning toponimga aylanishidan kelib chiqib hududiy landshaftning tarixiy holatini tiklash mumkin; antroponimik o‘tish orqali esa ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning antropologik tasvirini olish imkoniyati mavjud.

Tadqiqot ishining ikkinchi bobi **“Nemis va o‘zbek tillaridagi dendronimlarning etimologik xususiyatlari”** deb nomlanadi. Dendronimlar xalqning dunyoqarashi o‘z ifodasini topgan noyob lisoniy birliklardir. Har bir daraxt nomi – bu shunchaki obyektni belgilash emas, balki xalqning shu obyektga nisbatan munosabati, hissiy qiyofasi, ramziy mazmuni va tarixiy tajribasining muhridir. Masalan, sharq madaniyatida chinor ulug‘vorlik va umr ramzi bo‘lsa, german madaniyatida eman kuch va qat’iyat timsoli sifatida qadrlanadi. Archa esa ko‘plab madaniyatlarda poklik va yangilanishni bildiradi. Bu esa dendronimlarning semantik qatlamini yanada chuqurlashtiradi va ularning tilning ramziy tizimidagi o‘rnini mustahkamlaydi.

Dendronimlarning shakllanish jarayonida asosiy rolni nominatsiya modellarining xilma-xilligi o‘ynaydi. Har bir xalq tabiat obyektlarini o‘ziga xos tarzda tasniflagan, ular uchun mazmunli bo‘lgan belgilarni ajratgan va nomlashda shu belgilarni asosiy mezon sifatida qo‘llagan. Shu bois dendronimlarning semantik motivatsiyasi ham rang, shakl, hid, ta’m, meva xususiyatlari, geografik tarqalish, o‘simlikning inson hayotidagi funksiyasi, hayvonlar yoki inson bilan o‘xshashlik kabi ko‘plab omillarga tayanadi. Bu jarayonlar tilning kognitiv mexanizmlarini –

kategoriyalash, konseptualizatsiya, assotsiatsiya, metaforizatsiya va metonimiya kabi jarayonlarni yaqqol namoyon qiladi.

Dendronimlarning lingvokulturologik ahamiyati shundaki, ular nafaqat obyektni nomlaydi, balki xalqning ma'naviy olami, qadriyatlari, folklori va e'tiqodlari haqida chuqur ma'lumot beradi. Tilning ramziy tizimi, xususan folklor, maqol-matallar, afsonalar, irim-sirimlar, marosim qo'shiqlarida daraxt obrazlarining o'rni nihoyatda keng. Masalan, o'zbek xalq og'zaki ijodida terak – balandlik, erkinlik timsoli, tut – baraka manbai, jiyda – shifobaxshlik, archa – muqaddas poklik belgisi sifatida ko'p uchraydi. German folklorida esa eman – mardonavorlik va himoya kuchi, lipa – muhabbat va tinchlik timsoli, archa – ruhiy poklanish belgisi sifatida namoyon bo'ladi.

Demak, dendronimlar xalq tafakkurining ko'zgusi sifatida lisoniy manzaraning shakllanishida muhim konseptual rol o'ynaydi. Ularning nominativ modellarini o'rganish orqali nafaqat o'simliklar tasnifi, balki xalqning ekologik dunyoqarashi, kognitiv tajribasi, tarixiy-madaniy merosi va tilning ichki semantik mexanizmlari haqida ham chuqur xulosalar chiqarish mumkin.

Dendronimlar o'z ichiga bir necha elementni jamlaydi: tashqi belgi (po'stlog'i, bargi, balandligi), ekologik xususiyat (o'sish joyi, iqlimga mosligi), foydalanish doirasi (yog'och, meva, dorivorlik), xalq og'zaki ijodidagi o'rni va madaniy ramzlar. Har bir dendronim ushbu komponentlarning bir yoki bir necha jihatlariga asoslanadi, natijada so'z shakllanishi va semantik motivatsiyasi yuzaga keladi. Nominatsiya modellarini o'rganish bu jihatlarni aniqlash va til tarixida mavjud etimologik qatlamlarni tiklash imkonini beradi.

Tilning nominativ tizimida dendronimlarning shakllanish jarayonlari, ularning semantik va etimologiyasi farqlanadi.

2-jadval

Nominativ model	O'zbek tili misollari	Nemis tili misollari	Qiyosiy tahlil
Rang asosida nomlash	oq terak, qora terak, sarg'aygan tol	Weißbuche, Schwarzdorn, Rotbuche, Silberpappel	Har ikki tilda rang eng qadimiy va asosiy belgi. Nemis tilida rang ottenkalari (kumush, qizil) ko'proq grammatiklashgan.
Shakl asosida nomlash	majnuntol, sumbul daraxt, bargsiz tol	Spitzahorn, Rundlinde, Hängeweide	O'zbek tilida metaforik shakl, nemis tilida esa kompozitsion shakl nomlari ustun.
Meva xususiyatiga ko'ra	shirin olma, nordon o'rik, achchiq gilos	Süßkirsche, Sauerkirsche, Bittermandel	Har ikki tilda meva ta'mi nominatsiyada barqaror motivatsiya manbai.
Hid (organoleptik belgi)	hidli jiyda, sassiq o't	Stinkbaum, Faulbaum	Nemis tilida hidga asoslangan dendronimlar sistematik, o'zbek tilida kam uchraydi.
Mevadan yasalgan daraxt nomi	olma → olma daraxti; nok → nok daraxti	Apfel → Apfelbaum; Birne → Birnbaum	Nominatsiya modeli bir xil: meva → daraxt. Nemis tilida -baum affiksi standartlashgan.
Hayvon nomi bilan bog'lash (zookomponent)	itquloq, na'matak, ko'kterak	Hundsrose, Katzenbeere, Vogelbeere	Nemis tilida zookomponentlar zoologik realiyaga asoslanadi, o'zbekchada esa metafora ko'proq.

Nominativ model	O‘zbek tili misollari	Nemis tili misollari	Qiyosiy tahlil
Inson/ jinsga oid nomlash (antroponimik)	qizil jiyda, erkak tol (dialektal)	Jungfernrebe, Frauenrose, Männertreu	Nemis tilida antropomorf nomlar ko‘proq grammatiklashgan.
Geografik/areal nomlash	Buxoro olchasi, soylik tol, tog‘ teragi	Japan-Birke, Korea-Tanne, Bergahorn	Nemis tilida botanika nomenklaturasi bilan bog‘liq holda ko‘proq tizimli.
Mahsuldorlik / iqtisodiy funksiyaga ko‘ra	shifobaxsh jiyda, qurilish teragi	Kiefer (smolali), Linde (qalqon yasash), Esche (kamon daraxti)	O‘zbek tilida xalq xo‘jaligi bilan bog‘liq funksional nomlar ko‘p. Nemis tilida funksional nomlar tarixiy qatlamda saqlanib qolgan.
O‘xshashlik asosida nomlash (analogiya)	yovvoyi olma, qora qayin	Eschenahorn, Mandelweide	Har ikki tilda analogiya modeli faol, nemis tilida kompozitsiyalar orqali shakllanadi.
Landshaft asosida nomlash	adir tori, qumterak	Moorbirke, Waldulme, Feldahorn	Ekologik muhitga mos o‘simliklar nomi landshaft terminlari bilan integratsiyalashgan.
Metaforik-semantik kengayish	chinor – ulug‘vorlik; archa – poklik; tut – baraka	Eiche – kuch; Linde – tinchlik; Tanne – muqaddaslik	Metaforik kengayish har ikki tilda ramziy semantikani shakllantiradi.
Etnokultror ramziy ma’no asosida	daraxt – hayot manbai, qutlug‘ soy	Weltenbaum (dunyo daraxti), Weihnachtsbaum	German tilida mifologik konseptlar chuqur tizimlashgan.
Fonetik asoslangan xalq etimologiyasi	jiyda ~ jida; terak ~ tirak	Wacholder (xalq etimologik variantlari mavjud)	Ikkala tilda ham fonetik asoslangan nomlar tarixiy jarayon mahsuli.
O‘simlikning dorivor xususiyati bo‘yicha	dorivor jiyda, na’matak	Heilkraut, Lebensbaum (Thuja)	Dorivorlik funksiyasi qadimiy nominativ motiv sifatida umumiylikka ega.

So‘z yasalishi nuqtayi nazaridan dendronimlar ham tilning boshqa leksik birliklari kabi birlamchi, hosila bo‘lmagan (tub) nominatsiya natijasida vujudga kelgan sodda va ikkilamchi, yasama nominatsiya natijasida affiksal usul (sodda yasama) yoki so‘zlarni qo‘shish vositasida hosil bo‘lgan qo‘shma (murakkab) dendronimlarga bo‘linadi. Shu munosabat bilan “so‘zning so‘z yasalish tarkibini tahlil qilganda tadqiqotchi doim uchta asosiy tushuncha: so‘z yasovchi asos, derivatsion (so‘z yasovchi) affiks va hosila asos (yasalma) bilan ish yuritadi”[9].

Sodda dendronimlar til lug‘atining qadimiy qatlamini ifodalaydi; ularning etimologiyasi ko‘pincha noaniq bo‘lib, so‘zlarning motivatsiyasi yashiringan. Leksemalarning birlamchi ma’nosi faqat puxta etimologik tahlil bilan ochiladi. Aksariyat nemis dendronimlari tuzilishiga ko‘ra tub (yasalmagan) leksemalarga kiradi. Bu fakt qadimgi davrlarda ham nemislar o‘rmon florasi bilan yaxshi tanish

[9] Мурясов Р.З. Морфология производного слова (на материале существительных немецкого языка). – Уфа, БГУ, 1992. – С. 56.

bo‘lganligini ko‘rsatadi. Masalan: *Ahorn* “zarang”, *Birke* “qayin”, *Birne* “nok”, *Buche* “бук”, *Eiche* “dub, eman”, *Erle* “olxa”, *Espe* “osina, tog‘terak, ansol”, *Hasel* “oreshnik, o‘rmon yong‘og‘i”, *Kastanie* “kashtan”, *Kirsche* “olcha”, *Lärche* “archa”, *Linde* “lipa, jo‘ka”, *Ulme “qayrag‘och”, Weide* “tol”.

O‘zbek tilida *yong‘oqguli* “ryabina”, *qora olcha* “cheryomuxa”, g‘avjir “yosh qayin”, *gilos* “olcha”, *qarag‘ay* “tol”.

Dendronimlar ichida so‘zlarni qo‘shish yo‘li bilan yasalgan leksemalar katta qismni tashkil qiladi. Bu holat quyidagicha izohlanadi: “So‘z qo‘shish yordamida o‘simlik dunyosining bo‘linish xususiyatlarining sezilarli qismi ajralib turadi, bu olam lisoniy manzarasining shakllanishida so‘z yasalishining katta rolidan dalolat beradi”[10].

Qo‘shma dendronimlar odatda ikkita asosdan iborat:

Faulbaum “chirigan + daraxt” – shumurt, *Moorbirke* “botqoq + qayin” – momiq qayin, *Schneeball* “qor to‘pi” – kalina (bodrezak), *Mehlbaum* “un + daraxt” – do‘lana. Uchta asosning kombinatsiyasi ham kuzatilishi mumkin: *Ebereschenbeere* “tis + shumtol + rezavor mevalarlar" – ryabina, *Hundsbeerstrauch* “it + rezavor mevalar + buta" – qizil, *Affenbrotbaum* “maymun + non + daraxt” – baobab. To‘rtta asosdan iborat kompozitsiyalar kamdan-kam uchraydi: *Vogelbeerenebeeresche* “qush + rezavor meva + tis + shumtol” – ryabina.

Dendronimning so‘nggi komponenti aniqlanuvchi so‘z sifatida o‘simlikning xususiyati haqida ma’lumot beradi, nominatsiyani motivatsiyalovchi asosiy qismi sifatida ajralib turadi. Avvalo, bunday xususiyat denotatni o‘simliklarning ma’lum bir guruhi: daraxtlar yoki butalarga tegishliligi, mevalarning mavjudligi. Mansublik nemis tilida mos ravishda *Strauch / Busch* “buta” yoki *Baum* “daraxt” leksemalari bilan ifodalangan. Boshqacha qilib aytadigan bo‘lsak, ba’zi qo‘shma nomlar “nominatsiya obyektining sinfini ko‘rsatadigan so‘z yoki aniqlovchini” o‘z ichiga oladi[11]. Masalan: *Apfelbaum* “olma + daraxt” – olma daraxti, *Buchsbaum* “buk daraxti” – shamshod, *Geißbaum* “kosulya, serna (tog‘ kiyik) + daraxt” – baland yasen (shumtol), *Weißbaum* “oq + daraxt” – dala zarangi; *Mehlbeerbusch* “un + rezavor mevalar + buta” – do‘lana, *Haselbusch / Haselstrauch* “yong‘oq + buta” – oreshnik, sakson lahjasi *Jungfernstrauch* “qiz buta” – smorodina.

